

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



**Nammqi**  
O'quv-uslubiy boshqarma  
№ 428  
«03» o'g' 2024 y.

“Tasdiqlayman”  
Namangan muhandislik-  
qurilish instituti rektori  
SH.T.Ergashev  
2024 yil “03” o'g'

### XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI

#### FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohalari:	300 000 - Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohalari:	310 000 - Ijtimoiy va xulq atvoriga mansub fanlar
Mutaxassislik:	70310102 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Fan/modul' kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
BEHECO7.5	2024-2025	3	7,5
Fan/modul' turi	Ta'lim turi	Haftadagi dars soatlari	Jami yuklama (soat)
Tanlov	O'zbek	6	225
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil Ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Xulq-atvor iqtisodiyoti	90 (44 m / 46 a)	135	225
<b>I. Fanning mazmuni</b>			
<p><b>Fanni o'qitishdan maqsad</b> - talabalarda magistrlarda xulq-atvor iqtisodiyoti fanning nazariy asoslari, qonuniyatlari, tamoyillari, bo'yicha bilimga ega bo'lish, hozirgi noaniqlik sharoitida inson xulq-atvorining iqtisodiy jarayonlarga ta'siri va uni baholashni o'rgatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga insonning bilimlarga asoslangan qarashlar asosida munosabatda bo'lishda ko'nikma hosil qilish, ushbu sohada o'zining mustaqil xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o'rgatish, xulq-atvor ta'siridan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, uning huquqiy-me'yoriy asoslari bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lish, inson faoliyati va farovonligi iqtisodiyotining xususiyatlarini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni yanada boyitish va takomillashtirishdan iborat.</p> <p><b>Fanning vazifasi</b> - talabalarga insonning xulq-atvori, ma'daniyati, dunyoqarashi va ong ostining shartli reflekslarining iqtisodiy jarayonlarga ta'siri natijasidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murakkab iqtisodiy muammolar yechimining nazariy asoslari va uni baholashning zamonaviy usullarini tadqiq qilish; xulq-atvor iqtisodiyotida inson o'ziga xosligi, xususan inson madaniyati va iqtisodiyoti o'rtasidagi bog'liqlik, ya'ni insonning iqtisodiy hatti-harakatlari va uning hayotidagi o'zgarishlarning inson farovonligi iqtisodiyotiga ta'siri hamda insonning altruistik xulq-atvori singari yo'nalishlarni o'rgatishdan iborat.</p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fanning tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyotiga kirish.</b> Xulq-atvor iqtisodiyoti tarixi va mulohazalar. "Xulq-atvor iqtisodiyoti" fanning predmeti va obyekti. Xulq-atvor iqtisodiyotining usullari va qoidalari.</p> <p><b>2-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyoti fanning ustubiy asoslari.</b> Xulq-atvor iqtisodiyotida ratsionallik. Inson noratsional xulq-atvorining sabablari. Xulq-atvor iqtisodiyotida iqtisodiy nazariya muammoalarini hal etish</p>			

yo'llari. Xulq-atvor iqtisodiyoti fanning neyroiqtisodiyot va eksperimental iqtisodiyot bilan bog'liqligi. Xulq-atvor iqtisodiyotining tadqiqot usullari.

**3-mavzu. Risk va noaniqlik sharoitida tanlov: D. Kaneman va A.Tverskiylarning istiqbol nazariyasi.**

Kaneman va Tverskiy hamda ularning "ratsional tanlov, qadriyatlar va ramkalar" asari. Rerezentativ xatolar. Risk va noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish xususiyatlari. Istiqbol nazariyasining amaliy jihatlari va uning ahamiyati.

**4 - mavzu. Shaxsning xulq-atvor nazariyasi.**

Shaxsning iqtisodiyotdagi roli. Iqtisodiy agentlarning psixologik xususiyatlari. Emotsional intellekt.

**5 - mavzu. Firmaning xulq-atvor nazariyasi.**

Firma turli ilmiy-tadqiqot sohalari obyekt sifatida (neoklassika, institutsionalizm). G. Saymon firmaning xulq-atvor nazariyasi asoschisi sifatida. Firmaning xulq-atvor nazariyasi usullari.

**6 - mavzu. Qaror qabul qilish nazariyalari.**

Cheklangan ratsionallik nazariyasi. Kutiladigan nafillik nazariyasi va uning rivojlanishi. Istiqbol nazariyasi. Turtki nazariyasi. Individual qaror qabul qilishning paradokslari va cheklavlari.

**7-mavzu. Noaniq sharoitda qaror qabul qilish.**

Lotereyalar va ehtimoliy foyda. Inson xatti-harakatidagi paradokslar. Ellsberg paradoksi. Allais Paradoksi.

**8-mavzu. Qaror qabul qilish jarayonidagi effektlar.**

Ramka effekti. Egalik effekti va status-kvo effekti. Yo'qotishdan qochish. Mental hisob-kitob. Langan effekti. Muddatni belgilash effekti. Suruv psixologiyasi effekti. Defolt ta'siri. Qopqon ta'siri.

**9-mavzu. Vaqt oraliq'ida xulq-atvor.**

Eksponensial chegirma. Giperbolik chegirma. Tajribalarda vaqt afzalliklarini o'lchash.

**10-mavzu. Neyroiqtisodiyot.**

Mukofotga asoslangan qaror qabul qilish. Inson miyasining xususiyatlari va unga iqtisodiy o'zgarishlarning ta'siri. Inson miyasining asosiy mexanizmi. Inson miyasi faoliyatini o'lchash usullari.

**11-mavzu. Noaniq sharoitda xulq-atvor iqtisodiyoti.**

Lotereyalar va ehtimoliy foyda. Riskdan himoyalalanish uchun imtiyozlar va nafillik funktsiyasi. Inson miyasi faoliyatini o'lchash usullari. Neyroiqtisodiy eksperimentlar. Neyroiqtisodiyot. FMRI. EEG. MEG. Eksperimental iqtisodiyot.

### **12-mavzu. Neyroiqtisodiyotda o'rganish nazariyasi va tajribalar.**

Inson ongida chiniqtirish va o'rganish nazariyasi. Inson ongida o'quvni mustahkamlash nazariyasi. Inson ongida o'rganishni kuchaytirish nazariyasi. Inson ongining neyron mexanizmgiga asoslangan taxminlar xatoligi. Individual imtiyozlar. Pavlov tajribasi.

### **13-mavzu. Istiqbollik nazariyasi.**

Qiymat funksiyasi va ma'lumotning muhim nuqtasi. Qarorning vazn funksiyasi. Aqliy hisob. Xayr-ehson samarasi. Istiqbollik nazariyasining qo'llanilishi.

### **14-mavzu. Ratsional cheklash.**

Go'zallik tanlovi. Intuitiv qaror va xayolparastlik. Evristika. Muloqot chegarasining samarasi.

### **15-mavzu. Vaqt oraliq'ida xatti-harakatlar.**

Fishingning befarqlik egri chizig'i tahlili. Ikki davrli modelning budjet cheklovi va unda optimal iste'mol. Eksponensial diskontlash modeli. Giperbolik diskontlash modeli. Vaqtning nomuvofiqligi. Tajribalarda vaqt afzalliklarini o'lchash.

### **16-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyotida ijtimoiy imtiyozlar.**

Ijtimoiy imtiyozlar bo'yicha amaliy tahlillar. Xulq-atvor iqtisodiyotida bozor tajribalari. Ultimatum o'yinida raqobat. Ijtimoiy imtiyozlar bo'yicha modellar. Neyroiqtisodiyot va ijtimoiy imtiyozlar.

### **17-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyoti normativlari.**

Libertat paternalizm. Tanlov me'morlari. Xulq-atvor iqtisodiyoti va davlat siyosati. Evristika va uning turlari. Vakillik. Mavjudlik.

### **18-mavzu. Inson madaniyati va o'ziga xosligi.**

Inson madaniyati va iqtisodiyoti. Insonning madaniy iqtisodiyoti va tajribalari. Inson madaniyati va dunyoqarashi.

### **19-mavzu. Inson farovonligi iqtisodiyoti.**

Inson farovonligi. Inson hayotidagi o'zgarishlarning farovonligiga ta'siri. Insonning altruistik xulq-atvori va farovonligi.

### **20-mavzu. Inson xulq-atvorining asosiy qonuniyatlari.**

Inson xulq-atvor bo'yicha qarashlar. Inson xatti-harakatining cheklanganligi. Inson faoliyatidagi standart qoidalar. Insonning hissiy holatini pragnozlash qobiliyati.

### **21-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyoti va inson huquqi.**

Moliyaviy savodxonlik va axborotni tarqatishdagi cheklovlar. Huquqiy javobgarlik va jinoyat huquqida ta'sirchan pragnozlash. Xulq-atvor iqtisodiyotiga nisbatan tanqidlar. Xulq-atvor iqtisodiyotida foydalaniladigan

metodologiyalar.

### **22-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyotida nadjing.**

Nadjing tushunchasining mohiyati. Nadjing va standart iqtisodiy siyosat. Iste'molchilar huquqini himoya qilishda nadjingdan foydalanish. Atrof-muhit muhofazasi va nadjing.

### **23-mavzu. Strategik hamkorlik.**

Analiitik o'yin nazariyasi. Xulq-atvor o'yin nazariyasi. Strategik vaziyatlarda inson xulq-atvorini bashorat qilish. Xulq-atvor iqtisodiyotiga nisbatan tanqidlar.

### **III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

### **Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyotiga kirish
- 2-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyoti fanining uslubiy asoslari.
- 3-mavzu. Risk va noaniqlik sharoitida tanlov: D. Kaneman va A.Tverskiylarning istiqbol nazariyasi.
- 4 - mavzu. Shaxsning xulq-atvor nazariyasi.
- 5 - mavzu. Firmaning xulq-atvor nazariyasi.
- 6 - mavzu. Qaror qabul qilish nazariyalari.
- 7-mavzu. Noaniq sharoitda qaror qabul qilish.
- 8-mavzu. Qaror qabul qilish jarayonidagi effektlar.
- 9-mavzu. Vaqt oraliq'ida xulq-atvor.
- 10-mavzu. Neyroiqtisodiyot.

<p>11-mavzu. Noaniq sharoitda xulq-atvor iqtisodiyoti.</p> <p>12-mavzu. Neyroiqtisodiyotda o'rganish nazariyasi va tajribalar.</p> <p>13-mavzu. Istiqbollik nazariyasi.</p> <p>14-mavzu. Ratsional cheklash.</p> <p>15-mavzu. Vaqt oralig'ida xatti-harakatlar.</p> <p>16-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyotida ijtimoiy imtiyozlar.</p> <p>17-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyoti normativlari.</p> <p>18-mavzu. Inson madaniyati va o'ziga xosligi.</p> <p>19-mavzu. Inson farovonligi iqtisodiyoti.</p> <p>20-mavzu. Inson xulq-atvorining asosiy qonuniyatlari.</p> <p>21-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyoti va inson huquqi.</p> <p>22-mavzu. Xulq-atvor iqtisodiyotida nadjing.</p> <p>23-mavzu. Strategik hamkorlik.</p> <p>Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.</p> <p><b>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar</b></p> <p>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xulq-atvor iqtisodiyoti fanining mazmun-mohiyati va iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati.</li> <li>2. Xulq-atvor iqtisodiyoti nazariyaning shakllanishining kelib chiqishi.</li> <li>3. Xulq-atvor iqtisodiyotining asosiy prinsiplari va tamoyillari hamda usullari.</li> <li>4. Xulq-atvor iqtisodiy nazariyasi metodologiyasi.</li> <li>5. Noaniqlik sharoitida tavakkalchilikka asoslangan tanlov.</li> <li>6. Insonning xulq-atvor nazariyasi.</li> <li>7. Firmaning xulq-atvor nazariyasi.</li> <li>8. Iste'molning xulq-atvor nazariyasi.</li> <li>9. Xulq-atvor moliyasi.</li> <li>10. Inson xulq-atvori va iqtisodiyot.</li> <li>11. Xulq-atvor iqtisodiyoti va an'anaviy iqtisodiyot.</li> <li>12. Inson xulq-atvori va neyroiqtisodiyot.</li> <li>13. Insonning iqtisodiy hatti-harakatlari bo'yicha paradokslar.</li> <li>14. Istiqbollik nazariyasi va "Allais" paradoksi.</li> <li>15. Ijtimoiy imtiyozlar va ultimatum o'yinlari.</li> </ol>
--

<p>16. Xulq-atvor iqtisodiyotida bioetika.</p> <p>17. Inson madaniyati iqtisodiyoti.</p> <p>18. Insonning altruistik xulq-atvori va farovonligi iqtisodiyoti.</p> <p>19. Xulq-atvor iqtisodiyotida axloqiy qarashlar va fazilat axloq mezonlari.</p> <p>20. Xulq-atvor iqtisodiyotining davlat iqtisodiy siyosatiga ta'siri va uni baholash.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>	<p><b>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</b></p> <p><b>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• xulq-atvor iqtisodiyoti tarixi va ilmiy qarashlar to'g'risida; inson tanlovida oddiy evristik yondashuvlar haqida; inson evolyutsiyasi va madaniyatining iqtisodiy munosabatlariga ta'siri bo'yicha; farovonlik va nafillik bo'yicha; inson farovonligi iqtisodiyoti to'g'risida; neyroiqtisodiyotning mazmun-mohiyati va ahamiyati to'g'risida <i>tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>• neyroiqtisodiyotning asosiy tamoyillarini amaliyotga qo'llash tavakkalchilikka asoslangan tanlovning inson farovonligi iqtisodiyotiga ta'siri bo'yicha ishlarni amalga oshirish, yangi ma'lumotlarni shakllantira olish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>;</li> <li>• fan texnika taraqqiyotining yutuqlarini o'rganish orqali inson farovonligini ta'minlash; inson madaniyati va o'ziga xosligining iqtisodiy jarayonlarga ta'siri tizimini o'rgatish; boshqalar bilan muloqot qilish tartibi va usullarini qo'llash; inson tanlovda oddiy evristik yondashuvlar haqida; inson evolyutsiyasi va madaniyatining iqtisodiy munosabatlariga ta'siriga oid chet-el tajribasini qo'llash bo'yicha <i>malakaga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul>
3.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;</li> <li>• esse, tezis va maqola yozish;</li> <li>• vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish;</li> <li>• jarayonli – yo'naltirilgan ta'lim;</li> <li>• muhokamalarda ishtirok etish;</li> <li>• kichik guruhlarda ishlash;</li> <li>• loyiha ishi bajarish;</li> <li>• mustaqil ishlarni bajarish;</li> <li>• taqdimot tayyorlash;</li> </ul>
4.	

5.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• turli darajadagi testlarni echish;</li> <li>• so'rov o'tkazish.</li> </ul> <p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va ustubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ish yoki test sinovlarini topshirish.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Shoironon Nurdinova. Xulq-atvor iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. Innovatsion rivojlanish nahriyot matbaa uyi, 2023</li> <li>2. Kasimov A.A. Xulq-atvor iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022, – 200 b.</li> <li>3. F.A.Djalilov. Xulq-atvor iqtisodiyoti va davlat siyosati. (O'quv qo'llanma). - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022 - 124 b.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.</li> <li>5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" Farmoni // www.lex.uz</li> <li>6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" //www.lex.uz</li> <li>7. Masao Ogaki, Saori C. Tanaka. Behavioral Economics, Toward a New Economics by Integration with Traditional Economics. Publisher: © Springer Nature Singapore Pte Ltd. 2017. 242 pages.</li> <li>8. Cartwright Edward. Behavioral economics / Edward Cartwright. 3rd Edition. New York: Routledge, 2018. 587 pages.</li> <li>9. Paul De Grauwe. Behavioral macroeconomics. University of Leuven. 2014. 155 p.</li> <li>10. Alain Samson. The behavioral economics guide. 2016, Gerd Gigerenzer (Introduction). 175 p.</li> <li>11. Nick Wilkinon &amp; Matthias Klaes. An Introduction to Behavioral Economics. 3rd edition, Palgrave Macmillan. 2018. 616 pages.</li> </ol> <p><b>Axborot manbaalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>12. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.</li> <li>13. www.lex.uz–O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</li> <li>14. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)</li> <li>15. www.mehnat.uz (O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy</li> </ol>

<p>muhofaza qilish vazirligi)</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>16. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)</li> <li>17. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)</li> <li>18. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)</li> <li>19. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)</li> <li>20. http://www.nber.com - AQSh iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi sayti.</li> <li>21. http://www.webofscience.com- Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.</li> <li>22. http://www.scopus.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi.</li> <li>http://www.elibrary.ru - Rossiya ilmiy maqolalar indeksi.</li> <li>23. www.behavioraleconomics.com</li> </ol>	<p>7. <b>Namangan muhandislik – qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b></p>
<p>8. <b>Fan/modul' uchun ma'sullar:</b> M.Isakov – NamMQI "Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.n.</p>	
<p>9. <b>Taqrizchilar:</b> I.Q.Sirojiddinov – NamMQI "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası professori, i.f.n. M.Bo'stonov – NamMTI "Iqtisodiyot" kafedrası professori, DSc.</p>	